

## MA'LUMOTLAR HIMOYASI BIZ UCHUN MUHIM

### Www.info.lidl saytining maxfiylik siyosati

Lidl Stiftung & Co. KG (bundan keyin matnda "Lidl", "biz", "bizni/bizga/bizdan" deb yuritiladi) kompaniyasida ma'lumotlar himoyasiga qiziqish bildirganingiz uchun rahmat. Lidl'da biz siz web-saytimizga tashrif buyurganingizda o'zingizni qulay va xavfsiz his etishingizni va kompaniyamizning o'ziga xos jihatlaridan biri mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish majburiyatimiz ekanligini bilishingizni istaymiz.

Ushbu maxfiylik siyosati [www.info.lidl](http://www.info.lidl) veb-saytiga kirganingizda va oziq-ovqat va boshqa tovarlarimizning ta'minot zanjiriga jalb qilingan kelishilgan ta'minotchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqa tomonlar munosabatlarda sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz qanday va qay ko'lamda qayta ishlanishini tasvirlab beradi. Shaxsiy ma'lumot - bu sizni shaxsingizni tasdiqlovchi yoki sizni bevosita yoki bilvosita aniqlab berishi mumkin bo'lgan ma'lumot. Ma'lumotlar himoyasining qonuniy asosi, xususan, Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha Yel umumiy reglamenti (GDPR) hisoblanadi.

### I. Qisqacha ma'lumot

Lidl Stiftung & Co. KG kompaniyasining ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni asosan ikki turkumga ajratiladi:

- Siz veb-sahifaga kirganingizda sizning yakuniy qurilmangiz va bizning serverimiz o'rtasida turli ma'lumotlar almashiladi. Bunday ma'lumotlarga shaxsiy ma'lumotlar ham kirishi mumkin. Bunday usulda to'plangan ma'lumot bizning veb-saytimizni optimallashtirish yoki, agar siz rozilik bergan bo'lsangiz, veb-sahifadagi harakatlaringizni tahlil qilish uchun ishlatiladi.
- Yetkazib berish zanjirining shaffofligini ta'minlash uchun biz [www.info.lidl](http://www.info.lidl) saytida Lidl Stiftung & Co. KG kompaniyasining yetkazib berish zanjiridagi kelishuvga ega ishlab chiqaruvchilarni va/yoki ushbu zanjirning boshqa ishtirokchilarini e'lon qilamiz. Ushbu maqsadda yig'ilgan ma'lumot shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

### II. Saytimizga kirish

#### Qayta ishlash maqsadlari/qonuniy asoslar:

Veb-saytimizga kirganingizda sizning yakuniy qurilmangizdagi brauzer sizning ishtirokingizsiz avtomatik ravishda quyidagilarni bizning veb-sayt serverimizga yuboradi

- Internet yoqilganqurilma kirgan IP-manzil;
- Kirilgan sana va vaqt;
- So'ralgan faylning nomi va URL manzili;
- Kirish amalga oshirilgan veb-sayt/ilova (havola qiluvchi URL);
- Brauzer va tegishli joylarda Internet yoqilgan kompyuteringizning operatsion tizimi, shuningdek, kirish provayderingizning nomi.

veb-saytimiz serveriga va vaqtincha log-fayl deb nomlanuvchi qismda quyidagi maqsadlar uchun saqlanadi:

- uzluksiz ulanishni ta'minlash;
- bizning veb-saytimiz/ilovamizdan qulay foydalanilishini ta'minlash;

- tizim xavfsizligi va barqarorligini tahlil qilish.

Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qonuniy asos GDPR 6(1)(f) bandida keltirilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari bizning qonuniy manfaatlarimizni tashkil etadi.

#### Oluvchilar/oluvchilar toifalari:

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarni qayta ishlash doirasida sizning ma'lumotlaringiz bizning nomimizdan IT-xosting xizmatlari sektoridagi protsessorlarda ham qayta ishlanadi. Bunday ishlov beruvchilar biz tomonimizdan sinchkovlik bilan tanlanadi, tekshiriladi va GDPR 28-moddasiga muvofiq shartnoma orqali majburiyatlar yuklanadi.

#### Saqlash muddati/saqlash muddatini belgilash mezonlari:

Ma'lumotlar yetti kun saqlanadi va keyin avtomatik ravishda o'chiriladi.

### **III. Yetkazib berish zanjirlarini e'lon qilish**

#### Qayta ishlash maqsadlari/qonuniy asoslar

Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni shartnomaviy hamkorlarimizdan tortib ishlab chiqaruvchilargacha bo'lgan yetkazib berish zanjirlarini [www.info.lidl](http://www.info.lidl) veb-saytida e'lon qilish uchun to'playmiz va qayta ishlaymiz. Biz siz va yetkazib beruvchi o'rtasidagi amaldagi yetkazib berish shartnomasi doirasida bilvosita yoki bevosita yetkazib beruvchilarimizdan biriga siz oshkor qilgan nomlar va manzillarga oid ma'lumotlarnigina qayta ishlaymiz. Yetkazib berish zanjirining e'lon qilinishi GDPR 6(1)-moddasi (f) bandiga muvofiq qonuniy manfaatlarning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. Iste'molchilarga yetkazib berish zanjiri haqidagi keng qamrovli shaffoflikni taklif etish imkoniyati ushbu qoidaning mazmuni doirasida qonuniy manfaat deb hisoblanadi. Manfaatlar baholangach, ular eng muhim manfaatlariga ham qarshi qo'yilmasligi nazarda tutiladi. Ma'lumotlar boshqa maqsadlarda umuman qayta ishlanmaydi.

**Siz istalgan vaqtda, hech qanday to'lovsiz, sizning ma'lumotlaringiz yuqoridagi maqsadlarda kelgusida ham amal qiladigan tarzda qayta ishlanishiga qarshilik bildirishingiz mumkin. Buni, masalan, VII badda ko'rsatilgan manzilga e-mail yuborish orqali bajarishingiz mumkin. 9.**

#### Oluvchilar/oluvchilar toifalari:

Ushbu qonuniy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilish uchun sizning ma'lumotlaringiz [www.info.lidl](http://www.info.lidl) veb-saytida e'lon qilinadi va ulardan uchinchi tomonlar ham foydalanishi mumkin bo'ladi (VI bandga qarang). Bizning kompaniyamiz doirasida qonuniy manfaatlariga rioya qilish maqsadlarida bunday ma'lumotlarni talab qiluvchi bo'limlarga sizning ma'lumotlaringizdan foydalanish huquqi beriladi.

#### Saqlash muddati/saqlash muddatini belgilash mezonlari:

Veb-saytda e'lon qilinadigan yetkazib berish zanjirlari va ular bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlar har yili yangilanadi.

Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishilmagunicha saqlab qolinadi. Ba'zi holatlarda ma'lumotlar foydalanishni kuzata olishimiz uchun 10 yilgacha bizning diskda saqlanadi.

#### IV. Foydalanish haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun cookie-fayllar va boshqa shunga o'xshash texnologilar

##### Qayta ishlash maqsadlari/qonuniy asoslar:

Biz, Lidl Stiftung & Co. KG, Stiftsbergstraße 1, 74172 Neckarsulm, Germaniya manzilidagi kompaniya, barcha <https://info.lidl> (sub)domenlarida "cookie-fayllar" va boshqa ma'lumotlarni qayta ishlovchi shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanib ma'lumotlarni qayta ishlashga nisbatan nazoratchilarmiz.

Cookie-fayllar - bu veb-saytimizga kirganingizda yakuniy qurilmangizda (noutbuk, planshet, smartfon va h.k.) saqlanib qoladigan kichik, matnli fayllar. Cookie-fayllar yakuniy qurilmangizga zarar yetkazmaydi va ularning ichida hech qanday virus, troyan viruslari yoxud zararli dasturlar yo'q. Cookie-fayllarda ishlatilgan ma'lum bir yakuniy qurilma bilan bog'liq muayyan ma'lumotlarni saqlaydi. Ammo bu biz shaxsingizni birdan aniqlay olamiz, degani emas.

Foydalanish haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladigan cookie-fayllar va boshqa shu kabi texnologiyalar cookie-fayllar/boshqa texnologiyalar toifalariga qarab quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

- **Texnik muhim:** bunday cookie-fayllar va shu kabi texnologiyalarsiz siz bizning xizmatlarimizdan foydalana olmaysiz (masalan, veb-saytimiz/siz so'ragan funksiyalar va h.k.ning to'g'ri ko'rsatilishi uchun)
- **Tanlovlar:** foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun biz bunday usullarda sizning aniq yoki taxmin qilingan tanlovlaringizni hisobga olishimiz mumkin. Masalan, veb-saytimizni sizga mos tilda ko'rsatish uchun sozlamalaringizdan foydalanishimiz mumkin.
- **Statistik ma'lumotlar:** bunday texnologiyalar xizmatlarimizdan qanday foydalanilayotganligi haqida anonimlashtirilgan statistik ma'lumotlarni olish orqali ularning dizaynini foydalanuvchiga moslash imkonini beradi. Masalan, biz ulardan veb-saytimizni foydalanuvchi odatlariga moslash yo'llarini aniqlash uchun foydalanishimiz mumkin.

Biz foydalanadigan cookie-fayllar va boshqa shu kabi texnologiyalar, shu jumladan, ularni qayta ishlashga oid maqsadlar, ma'lumotlarni saqlash muddatlari va ushbu jarayonga jalb etilgan istalgan uchinchi tomon provayderlari haqida qisqacha ma'lumot uchun [cookie-fayllar siyosatiga](#) qarang.

Maqsadga qarab, foydalanish haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun cookie-fayllar va boshqa shu kabi texnologiyalardan foydalanish asosan quyidagi shaxsiy ma'lumotlar turlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi:

##### **Texnik muhim:**

- joriy domen uchun foydalanuvchining rozilik holatini saqlash uchun foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan ma'lumotlar (masalan, cookie-fayllarga rozilik);
- xavfsizlikka oid voqealar (masalan, tizimga kirishda muvaffaqiyatsiz takroriy urinishlarning aniqlanishi);
- multimediani ijro qilish uchun ma'lumotlar (masalan, siz tanlagan videolarni (mahsulot) ijro qilish)

##### **Tanlovlar:**

- Foydalanuvchi interfeysini moslash uchun sozlamalar (masalan, ma'qul tilni tanlash);

## Statistika:

- Veb-saytdan foydalanishga oid ma'lumotni o'z ichiga oluvchi taxallus qo'yilgan profillardan foydalanish. Bular asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - brauzer turi/brauzer versiyasi;
  - foydalaniladigan operatsion tizim;
  - foydalaniladigan qurilma;
  - havola qiluvchi URL (masalan, oldin kirilgan sahifa);
  - kirayotgan kompyuterning xost nomi (IP-manzil);
  - serverga so'rov vaqti;
  - individual foydalanuvchi ID;
  - veb-saytda yuz bergan voqealar (internetdagi xulq-atvor).
- IP-manzil muntazam ravishda anonimlashtiriladi, bu esa sizni shaxsingiz ortiq aniqlanmasligini bildiradi.

GDPR 6(1)(a) moddasiga muvofiq, sizning rozilingiz tanlov va statistik cookie-fayllardan foydalanish uchun qonuniy asos sanaladi. GDPR 6(1)(f) moddasi texnik muhim cookie-fayllardan foydalanish uchun qonuniy asos sanaladi, chunki sizga funksional veb-sayt taklif qilishdan biz ham qonuniy manfaatga egamiz.

**Siz istagan vaqtingizda kelgusida ham amal qiladigan rozilikni qaytarib olishingiz/o'zgartirishingiz mumkin, bu rozilik qaytarib olinishidan oldingi rozilikka asoslangan qayta ishlash qonuniyligiga ta'sir qilmaydi. Tanlash uchun [bu yergabosing](#).**

### Oluvchilar/oluvchilar toifalari:

Foydalanish haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun cookie-fayllar va shu kabi texnologiyalardan foydalanganda ba'zan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun maxsus xizmat provayderlarini jalb etishimiz mumkin. Ular ishlov beruvchilar sifatida bizning nomimizdan ma'lumotlaringizni qayta ishlaydi. Ularning har biri biz tomonimizdan sinchkovlik bilan tanlanadi va GDPR 28-moddasiga muvofiq shartnoma orqali majburiyatlar yuklanadi. [Cookie-fayllar siyosatimizda](#) xizmat provayderlari deb keltirilgan barcha kompaniyalar bizning nomimizdan ma'lumotni qayta ishlovchilar deb qaraladi.

Google LLC bilan hamkorligimiz doirasida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar AQSHda joylashgan serverlarda statistik maqsadlarda qayta ishlanadi.

### Saqlash muddati/saqlash muddatini belgilash mezonlari:

Cookie-fayllarni saqlash vaqti haqida ma'lumot uchun [cookie-fayllar siyosatimizga](#) qarang. Agar "amal qilish muddati" ustunida "doimiy" kiritilsa, tegishli rozilik qaytarib olinmaguncha, cookie-fayllar doimiy saqlanadi.

## **V. Mijozlarga xizmat ko'rsatish**

### Qayta ishlash maqsadlari/qonuniy asoslar:

Siz bizga kontakt shakli,, telefon, e-mail yoki ijtimoiy tarmoq (masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qilganingizda) orqali beradigan barcha shaxsiy ma'lumotlaringizga nisbatan maxfiy munosabatda bo'lamiz. Biz ma'lumotlaringizdan faqat so'rovingizni qayta ishlash uchun cheklangan

maqsaddagina foydalanamiz. GDPR 6(1)(f)-moddasi va 6(1)(b)-moddasi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlarni qayta ishlashga nisbatan bizning umumiy (qonuniy) manfaatimiz sizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday savolga javob berish va muammolarni hal qilish, shu tariqa mijoz yoki veb-saytimiz foydalanuvchisi sifatida talablaringiz bajarilishini ta'minlash va bizdan mamnunlik darajangizni oshirish maqsadidan kelib chiqadi.

#### Oluvchilar/oluvchilar toifalari:

So'rovlaringizga javob berganda, shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashni, o'z nomimizdan, mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan ishlov beruvchilarga topshiramiz. Bunday ishlov beruvchilar biz tomonimizdan sinchkovlik bilan tanlanadi, tekshiriladi va GDPR 28-moddasiga muvofiq shartnoma orqali majburiyatlar yuklanadi.

Bundan tashqari, so'rovingizni qayta ishlash maqsadida so'rovingizdan parchalarni shartnomaviy hamkorlarga (masalan, muayyan mahsulotga so'rovlarida yetkazib beruvchilarga) ham berishimiz mumkin. Bunday vaziyatlarda so'rovingiz avvaldan anonimlashtirilgan bo'ladi va uchinchi tomonlar shaxsingizni aniqlay olmaydi. Alohida holatlarda shaxsiy ma'lumotlaringizni berish zarur bo'lsa, biz oldindan sizga xabar beramiz va rozilik so'raymiz.

Buning uchun o'z roziligingizni bermaguningizcha biz shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi tomonlarga bermaymiz.

#### Saqlash muddati/saqlash muddatini belgilash mezonlari:

Veb-sayt yoki e-mail orqali so'rovlar bilan murojaat qilganingizda (ijobiy/salbiy sharhlar yoki takliflar) biz sizdan olgan barcha shaxsiy ma'lumotlaringizni yakuniy javob yuborilganidan keyin 90 kundan kechikmay o'chiramiz yoki shaxssizlantiramiz. Tajribadan kelib chiqib, odatda biz 90 kundan keyin javoblarimizga oid hech qanday savollarni qabul qilmaymiz. Ma'lumotlar subyekti sifatida huquqlaringizni himoya qilsangiz (quyidagi VI bo'limga qarang), shaxsiy ma'lumotlaringiz yakuniy javobdan keyin uch yil davomida saqlanadi, bundan maqsad biz sizga to'liq ma'lumot berganimizni va barcha qonuniy talablar bajarilganligi faktini hujjatlashtirishdir.

### **VI. Uchinchi tomonlardagi oluvchilarga ma'lumotlarni uzatish**

Agar ma'lumotlaringizni uchinchi tomonlardagi (Yevropa iqtisodiyoti hududidan tashqarida joylashgan hududlardagi) oluvchilarga uzatsak, bu tegishli ma'lumotlar qayta ishlovi tavsifida oluvchilar/oluvchilar toifalari haqidagi ma'lumotda aks etadi. Ba'zi uchinchi tomonlar Yevropa Komissiyasi tomonidan muvofiqlik to'g'risida qarorlar orqali Yevropa iqtisodi hududida ta'minlanadigan ma'lumotlarni himoya qilish darajasiga teng darajaga ega tan olingan. Ushbu mamlakatlar ro'yxati: [http://ec.europa.eu/justice/data-protection/international-transfers/adequacy/index\\_en.html](http://ec.europa.eu/justice/data-protection/international-transfers/adequacy/index_en.html). Agar berilgan mamlakatda ma'lumotlar himoyasi kerakli darajada bo'lmasa, biz ma'lumotlar himoyasining muvofiq darajasini ta'minlash choralarini ko'ramiz, masalan, majburiy korporativ qoidalar, [Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida Yevropa Komissiyasi standart shartnomaviy bandlari](#), sertifikatlar yoki tan olingan xulq-atvor kodekslari kabi. Batafsil ma'lumot uchun ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xodimimizga murojaat qiling (9-band).

### **VII. Ma'lumot subyektlarining huquqlari**

Bizga berilgan rozilikni istalgan vaqtda qaytarib olish huquqidan tashqari, sizda qonuniy shartlarga amal qilganda quyidagi qo'shimcha huquqlar ham mavjud:

- GDPR 15-moddasiga binoan o'zingiz haqingizdagi bizda saqlanadigan barcha shaxsiy ma'lumotlaringizga kirish huquqi;
- noaniq shaxsiy ma'lumotlarni to'g'rilash va GDPR 16-moddasiga muvofiq to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni to'ldirish huquqi;
- GDPR 17-moddasiga muvofiq bizda saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirish huquqi;
- GDPR 18-moddasiga muvofiq ma'lumotlaringiz qayta ishlanishini cheklash huquqi;
- GDPR 20-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni o'tkazish huquqi;
- GDPR 21-moddasiga muvofiq e'tiroz bildirish huquqi;

### **1. GDPR 15-moddasiga muvofiq kirish huquqi**

GDPR 15(1)-moddasi muvofiq siz o'zingiz haqingizda saqlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida bepul ma'lumot so'rash huquqiga egasiz. Bu asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari;
- qayta ishlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar toifalari;
- sizga tegishli shaxsiy ma'lumotlar oshkor etiladigan oluvchilar yoki ularning toifalari;
- sizga tegishli shaxsiy ma'lumotlarning rejalangan saqlash muddati, agar bu haqida batafsil ma'lumot olishning imkoni bo'lmasa, saqlash muddatini belgilovchi ishlatiladigan mezonlar;
- sizga tegishli ma'lumotlarni to'g'rilash yoki o'chirish, nazoratchidan ma'lumotlarni qayta ishlashni cheklashni talab qilish yoki ma'lumotlarni bunday qayta ishlashga norozilik bildirish huquqlarining mavjudligi;
- nazorat qilish organiga shikoyat qilish huquqi;
- agar ma'lumot o'z subyektidan yig'ilmayotgan bo'lsa, u olingan manba haqidagi barcha mavjud ma'lumotlar;
- GDPR 22(1)- va (4)-moddalariga muvofiq har qanday avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlari, shu jumladan, profillashning mavjudligi va - hech bo'lmaganda ushbu holatlarda - nantiq haqida, shuningdek, ma'lumot subyektlari uchun bunday qayta ishlashning ahamiyati va taxminiy oqibatlar haqida arziqli ma'lumot.

Agar shaxsiy ma'lumotlaringiz uchinchi tomonga yoki xalqaro tashkilotga o'tkazilsa, GDPR 46-moddasiga muvofiq sizda tegishli ehtiyot choralari haqida eslatma olish huquqi mavjud.

### **2. GDPR 16-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni to'g'rilash huquqi**

Siz o'zingiz haqingizdagi noaniq ma'lumotlarni to'g'rilashni talab qilish huquqiga egasiz. Qayta ishlash maqsadlarini hisobga olib, siz to'liq bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni qo'shimcha bayonot taqdim etish orqali to'ldirish huquqiga egasiz.

### **3. GDPR 17-moddasiga muvofiq o'chirish huquqi**

Quyidagi asoslardan biri tatbiq etilsa, siz bizdan o'zingizga tegishli istalgan shaxsiy ma'lumotni o'rinsiz kechikishsiz o'chirishni talab qilish huquqiga egasiz:

- shaxsiy ma'lumot to'plangan yoki boshqa tarzda qayta ishlanish maqsadlari uchun ortiq zarur bo'lmaganda;

- GDPR 6(1)(a)-moddasi yoki 9(2)(a)-moddasiga muvofiq ma'lumotlaringizni qayta ishlash asoslangan roziligingizni rad etganingizda va qayta ishlash uchun boshqa qonuniy asos bo'lmaganda;
- GDPR 21(1) yoki (2)-moddalariga muvofiq ma'lumotlar qayta ishlanishiga e'tiroz bildirganingizda va GDPR 21(1)-moddasi holatida ma'lumotni qayta ishlash uchun hech qanday ustun keluvchi qonuniy asoslar bo'lmaganda;
- shaxsiy ma'lumotingiz noqonuniy ravishda qayta ishlanganda;
- qonuniy majburiyatlarni bajarish uchun shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish zarur bo'lganda;
- GDPR 8(1)-moddasida keltirilgan axborot jamiyati xizmatlari taklifi sabab shaxsiy ma'lumotlaringiz to'planganda.

Biz shaxsiy ma'lumotlaringizni ommaga taqdim etgan va ularni o'chirish majburiyatini o'z zimmamizga olgan holatlarda mavjud texnologiyalar va ularni tatbiq etish xarajatlarini hisobga olgan holda, biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlovchi uchinchi tomonlarga siz ushbu tomonlardan siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarga har qanday havolalar, ularning nusxalarini yoki takrorlarini o'chirishni so'raganligingiz faktini xabar qilamiz.

#### **4. GDPR 18-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni qayta ishlashni cheklash huquqi**

Siz quyidagilardan biri tatbiq etilgan holatlarda bizdan ma'lumotlaringiz qayta ishlanishini cheklashni talab qilish huquqiga egasiz:

- shaxsiy ma'lumotlar aniqligi bo'yicha e'tiroz bildirganingizda;
- ma'lumotlar noqonuniy ravishda qayta ishlanganda va siz shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirishdan ko'ra ularni ishlatilishini cheklashni talab qilganingizda;
- shaxsiy ma'lumotlaringiz endilikda nazoratchiga qayta ishlash uchun talab qilinmaganda, ammo ular ma'lumotlar subyekti tomonidan qonuniy talablarni aniqlash, amalga oshirish yoki himoyalash uchun talab qilinganda; yoki
- GDPR 21(1)-moddasiga muvofiq nazoratchining qonuniy asoslari ma'lumotlar subyektinikidan ustunmi yoki yo'qligi tekshirilishini kutayotib, qayta ishlashga e'tiroz bildirganingizda.

#### **5. GDPR 20-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni o'tkazish huquqi**

Siz bizga taqdim etgan o'zingizga tegishli ma'lumotlarni strukturali, ochiq foydalaniladigan va mashinada o'qiladigan formatda olish va bu ma'lumotlarni bizning qarshiligimizsiz boshqa nazoratchiga o'tkazish huquqiga egasiz, agarki.

- qayta ishlash 6(1)(a)-moddaga yoki 9(2)(a)-moddaga muvofiq yoki GDPR 6(1)(b)-moddasiga muvofiq rozilikka asoslangan bo'lsa va
- qayta ishlash avtomatlashtirilgan vositalarda amalga oshirilsa.

Ma'lumotlarni o'tkazish huquqingizdan foydalanganingizda, texnik imkoni bor holatlarda shaxsiy ma'lumotlaringizni bevosita bizdan nazoratchiga o'tkazish huquqiga egasiz.

#### **6. GDPR 21-moddasiga muvofiq e'tiroz bildirish huquqi**

Agar GDPR 21(1)-moddasi talablariga rioya qilinsa, muayyan vaziyatingizdan kelib chiqib shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlanishiga e'tiroz bildirishingiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan e'tiroz bildirish borasidagi umumiy huquq maxfiylik siyosatida belgilangan va GDPR 6(1)-moddasi asosida qayta ishlanadigan ma'lumotlarni qayta ishlashga oid barcha asoslarga tatbiq etiladi. Reklama qilish maqsadlarida ma'lumotlaringizni qayta ishlashga e'tiroz bildirish huquqidan farqli ravishda, agar birinchi darajali, masalan, hayot yoki salomatlik uchun ehtimoliy xatarga oid ahamiyatga ega asoslarni havola qilsangizgina, biz e'tiroz bildirishning umumiy huquqi doirasida harakatlanishga majburmiz. Bundan tashqari, siz Lidl Stiftung & Co. KG uchun mas'ul nazorat organiga yoki Lidl Stiftung & Co. ma'lumotlarni himoya qilish xodimiga murojaat qilish huquqiga egasiz (IV.4 bo'limini ko'ring).

#### **7. GDPR 77-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organga shikoyat qilish huquqi**

Siz istalgan vaqtda ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organga shikoyat qilish huquqiga egasiz. Buning uchun, siz yashaydigan Germaniyadagi ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organga yoki Lidl Stiftung & Co. KG bosh ofisi joylashgan Baden-Vyurtembergdagi tegishli organga murojaat qilishingiz mumkin.

#### **8. Huquqlaringizdan foydalanish**

Savollar yuzaga kelganida yoki himoya huquqlaringizdan foydalanish uchun kontaktlar

Ma'lumotlaringizni (ma'lumotlarni himoya qilish huquqlar) qayta ishlashdagi huquqlaringizdan foydalanish uchun Lidl mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling:

<https://www.lidl.de/contact>

#### **9. Nazoratchi va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mas'ul xodim**

Ushbu maxfiylik siyosati Lidl Stiftung & Co. KG, Stiftsbergstraße 1, 74167 Neckarsulm, Germany ("Nazoratchi") tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlanishida va [www.info.lidl](http://www.info.lidl) veb-sayti uchun qo'llaniladi.

Siz nazoratchiga [corporate.communications.international@lidl.com](mailto:corporate.communications.international@lidl.com) orqali murojaat qilishingiz mumkin. [www.info.lidl](http://www.info.lidl) veb-sayti ishlashi bilan bog'liq ma'lumotlarni himoya qilishga oid savollar borasida yuqorida keltirilgan manzildagi Lidl Stiftung & Co. KG kompaniyasining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mas'ul xodimiga yoki [datenschutz@lidl.com](mailto:datenschutz@lidl.com) manziliga murojaat qiling.